

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

№ 22 (66303)
2001 yil 1 iyun, juma

Sotuvda erkin narxda

MUSTAQILLIK FARZANDLARI

Har yili bolalarni himoya qilish kunida bolaligimga bir nazar tashlayman. Negaki, men ulkan hayot bo'sag'asida turibman, sizga ana shu sayohatim haqida so'zlab beray.

Bolaligim! Sen asalday shirin, osmondagi musaffo va pokiza tuyg'ular sohibidursan. Shodliklarga to'la qalbingni, doimo kulib turuvchi ko'zlarini qanchalar sog'inganimni bilsayding. Men sening jismingni tark etgan bo'lsam-da, hamon sening ruhing bilan yashab kelmoqdaman. Nechun seni bunchalar qo'msayman degan edim hamki, ichimdan qandaydir ovoz kela boshladi. Bilsam, bu mening qalbim ekan. U bolaligim meni o'z huzuriga chorlayotganligini yetkazdi. Va men shu zahotiy oq qalbim so'qmoqlaridan

ULKAN YURAK QASRIGA SAYOHAT

yo'lga tushdim. Men u yerda ertaklardagidek qizil dengizga duch keldim. Bu dengiz hayot dengizi bo'lib, juda xushmuomala ekan. U bir maromda chayqalib, menga salom berdi. Men uning salomiga alik olib, bolalikning poshsholigiga qanday borishni bilib oldim. U xayrlashish oldidan menga shunday dedi: «Agar sen hayot dengizining umri uzoq bo'lsin, tomirimda mavj urib oqsin, desang, mening qirg'oqlarimni to'ldiruvchi daryo yo'llarini berkitma», deya qo'l silki, yana bir maromda oqishni davom ettirdi. Yo'lda zerikmaslik uchun qo'shiq xirgoyi qilib, atrofini diqqat bilan kuzatib bordim. Avval jarlik, so'ng yalanglik va nihoyat o'rmonning kirish joyiga ham yetib keldim. O'rmonga kirib borganim sayin atrof ham sekin, asta qorong'ulashib borardi. Va qandaydir ovoz eshitila boshladi. Keyin bilsam, bolalikning poshsholigidagi soqchilar men kelayotganim haqida bong orqali bolalik malikasini ogoh etayotgan ekan. Bir oz yurganimdan so'ng bu ovoz yanada kuchayib, bolalik malikasining ulkan yurak degan qasrini ko'rsata boshladi. Men bu qasr darvozasi yonida qo'lini ko'ksiga qo'yib, boshiga shirinlikdan toj kiyib, atrofiga erka kanizaklarni yig'ib, qorong'ulikni bir zumda nurga cho'mdirgan bolalikni ko'rib, sevinchdan ko'z yoshlarim shashqator bo'lib oqardi. Men yugurib borib, bolaligimning bo'ynidan mahkam quchdimu, uning husnu-jamoliga termulib: «Ayt-chi, bolaligim, sen doim men bilan hamohang nafas olasan, yuragimning qo'rida yashaysan, ammo nechun seni sog'inaveraman?», dedim. Bolaligim: «Bu savolingga she'r bilan javob bersam» dedi.

**Bolalikning sho'x yallalari,
Chalinadi bir bor dillarda.
Bu yallalar o'tganidan so'ng,
U yangraydi faqat tillarda.**

Bolalik malikasining bu so'zlarini eshitib, bolaligimning ulkan yurak degan qasri larzaga keldi. Bolaligim bilan xayrlashib ulgurmasimdan oq beshafqat yillar to'zoni meni bolaligimdan uzoqlashtira boshladi. Bu to'zon ichida kelgan yo'limga ravona bo'ldim va bolaligim bilan umrbod xayrlashdim.

Munajat SADRIDDINOVA,
A.Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyining
10-«A» sinf o'quvchisi.



Ko'chada bir to'p bolalar qiy-chuv ko'tarib o'ynayotgan edilar. Ko'chaning narigi chekkasidan esa og'ir yuk ko'targancha bir chol kelardi. Shu payt ikki-uch bola to'pdan ajralib chiqib, chol qarshisiga yugurishdi. Odob bilan salom berib, cholning qo'lidan yukni olishdi.

- Baraka topinglar, bolalarim, - dedi chol nafasini roslab, peshonasidagi dona-dona terni artar ekan.

Bolalar Musa otaning qayerda turishlarini yaxshi bilishar edi. Shuning uchun ham yukni g'izillatgancha ota yashayotgan uy oldiga olib borishdi. Musa ota yetib kelib bolalardan juda xursand bo'ldi va ularga turli-tuman shirinliklar ulashibdi.

Qariyalarning og'irini yengil qilayotgan bu kichkintoylar kimlar dersiz? Bular albatta Mustaqillik bolalari, yurtimizning sog'lom avlodlaridir!

Nodira QURBONOVA.

MOHIRANING QO'SHIQLARI

Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumanida tug'ilib o'sgan Mohira Bobojonovaning qo'shiq kuylashga ishtiyoqi baland. U hozirgi kunda Amudaryo tumanidagi 12- o'rta maktabning 7-«B» sinfida a'lo baholar bilan o'qimoqda. Maktabda namunali o'quvchilardan biri. U tuman, respublika miqyosida bo'lib o'tadigan tanlovlarda qatnashib, oldingi o'rinlarga sazovor bo'lib kelmoqda. Nukus-shahrida bo'lib o'tgan «Bolalar onalarini kuylaydi» deb nomlangan tanlovda «Xalqim», «Amudaryo» qo'shiqlari bilan ishtirok etib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat Vazirligining 2-darajali diplomi bilan taqdirlandi. Uning «Amudaryo» deb nomlangan qo'shig'i Gulmira Nurmetova she'ri va musiqasi bilan estrada janriga solib aytili. Keyin Mang'it shahrida «Assalom Navro'z» tanlovi bo'lib o'tdi. Unda ham tanlovning yakka ashula sharti bo'yicha faxrli 1-o'rinni egalladi.

- Sizning san'atga kirib kelishingizga turtki bo'lgan narsa nima?- deb so'rasam;

- Bilmayman, - deydi u kulib. - Kichkinaligimdan qo'shiq aytishga juda qiziqardim. Xoh radio, xoh televizorda bo'lsin Yulduz Usmonovaning qo'shiqlarini maroq bilan tinglardim va unga qo'shilib jo'r bo'lishga harakat qilardim.

- Kelajakdagi orzularingiz?
- Mening orzularim juda ko'p. Shulardan eng kattasi - Toshkentdagi konservatoriyaga kirib o'qish va, elga taniqli san'atkor bo'lish!

Maktabda bo'lib o'tadigan har xil tadbir Mohiraning jozibador qo'shiqlarisiz o'tmas ekan, yurtimiz bo'ylab ham uning qo'shiqlari yangrab turishini tiladim va dugonamning keyingi ijodlariga omadlar yor bo'lsin, dedim.

Mastura QO'CHQOROVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Amudaryo tumanidagi 12-o'rta maktabning
11-sinf o'quvchisi.


Ha, bugunning bolasiga qay tarzda va qay yo'nalishda yondoshmang, har tomonlama to'kis va ziyrakdir. Mehmonimiz sharqona qo'l jangi - kikkoksing bo'yicha bolalar va o'smirlararo chempioni Tal'at Xolmatovdir. U Akmal Ikromov tumanidagi 123-maktabning 6- «A» sinfida a'lo baholarga o'qish bilan birga har kuni darsdan so'ng «Dinamo» sport majmuasidagi kikkoksingga qatnaydi.

- Uyimiz Nazarbekda joylashgan. To'g'ri, «Dinamo» bizdan ancha yiroqda, biroq dadam har kuni o'zlari metrogacha olib borib qo'yadilar. U yog'iga o'zim ketaveraman. Sportga shu darajada qiziqamanki, yo'lning olisligi hecham bilinmaydi. Kikkoksingga uch yildan beri qatnayman. Avvaliga har oyda pul to'lar edim. O'smirlararo xalqaro turnirda

CHEMPIONLARGA TEKIN

qatnashib, chempion bo'lganimdan beri haq to'lamayman. O'zi tartib-qoida ham shunday. Yangilar pul to'laydi, chempionlar tekinga qatnaydi, agar murabbiylik tanlovida g'olib chiqsa, har oyda ish haqi ham oladi. Shunaqa gaplar. Men ham yaqin orada murabbiylik qilish huquqini olishim mumkin.

Tal'at Xolmatovning sportdagi ishtiyoqiga kamarbasta bo'layotgan murabbiylari - Asad O'rinov va Baxtiyor Chutbayevlar shogirdlarining yutuqlaridan faxrlanadilar. Talatning g'ayrati va shijoatini o'z vaqtida sezganliklari bois, darhol terma guruhga o'tkazishdi. Terma guruhda 15 nafar chempion bolalar mashq qiladilar. Ular uchun alohida mashg'ulotlar o'tiladi. Mashg'ulot 2 soat davom etib, bolalar tinmay mashq qiladilar. To'g'ri, biroq toliqishadi, biroq natija medallarga



taqaladi. Chunki undan-da yuqori cho'qqilarni egallash kerak-da.

- Sportga bo'lgan ishtiyoqim darsimga xalal bermaydi, - deydi Tal'atbek. - Barcha baholarim a'lo. Xalq maorifi a'lochisi, oliy toifali o'qituvchi Xurshida opa Alimova mening sportdagi yutuqlarim bilan, darsdagi o'zlashtirishim bilan doimo faxrlanib gapiradilar. Umid va Marat akalarim ham kikkoksingga qatnashishgan. Akam Umid G'ulomov Toshkent Davlat huquqshunoslik institutida 1 kursda o'qiydilar. Marat akam esa Adliya vazirligiga qarashli kollejda ta'lim oladilar.

Mening tengdoshlarimga tilagim - ular ham sportga qatnashishsin. Avvalambor sport sog'lik uchun, keyin do'stlar orttirish uchun kerakdir. Shu bilan birga maktabdagi o'zlashtirishlari ham a'lo bo'lsin.

Munavvara PIRMATOVA.

QISHLOG'ISTON - GULISTON

Mana, orziqib kutganimiz yozgi ta'til ham boshlandi. Hademay buvajonim bilan ular tug'ilib o'sgan Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi Tamtum qishlog'iga yo'l olamiz. U yerlarni bir ko'rsangiz edi. Hammayoq ko'm-ko'k maysalar, rango-rang gullar bilan qoplangan. Yaylovlarda gala-gala qo'y-qo'zilar, echki-uloqlar, sigir-buzoqlar, ot-toychoqlar o'tlab yuradi. Sayroqi qushlarning ko'pligini aytmysizmi? O'tloqlarda dumalab, ularning ovozlari quloq tutishni yoqtiraman...

Buvamning aytishlaricha, Tamtumning atrofida Achchi, Qoramozor, Uvol, Karim, Taylon kabi yetmişdan ortiq qishloqlar bor ekan. Lekin afsuski, ularning nomlanish tarixini buvamning o'zlari ham bilmas ekanlar.

Odatda, bir necha shaharlar jamlamasini «shahriston» deyishadi. Men esa bu so'lim qishloqlarga «Qishlog'iston - Guliston» deya nom berdim, «kashfiyotim» buvamga ham ma'kul bo'ldi.

*Yulduz QORAYEVA,
Mirzo-Ulugbek tumanidagi 222-
maktabning
6-«V» sinf o'quvchisi.*

Hayot charxpalagi kunlar o'tib aylanib boraverar ekan. Yaqindagina maktabni bitirib ketayotgan o'quvchilarga havas qilgan o'g'il-qizlar mana bugun o'zlari ham maktab qo'ynidan uchirma bo'lmoqdalar.

Kuni kecha barcha ilm maskanlarida katta bayram nishonlandi. So'nggi qo'ng'iroq. Aslida bu bayram har yilning 25 may kuni nishonlanadi. Ayniqsa, maktabni bitirayotgan o'quvchilar uchun bu kun naqadar.

shu qo'shiq azizdir. Balki bugungi bitiruvchilar uchun maktabni tark etish unchalik achchiq emasdir, ammo lekin oradan bir necha yil o'tar o'tmas ular o'zlarining eng shirin damlari o'tgan maskanni juda-juda sog'inadilar.

Bu bayram har bir maktablarda nishonlangani kabi poytaxtimizning A.Ikromov tumanidagi A.Yassaviy nomli 203-maktabda ham katta tantana ila nishonlandi.

Men bu yerga borganimda barcha o'quvchilar qo'llaridagi gul bilan ustozlarini qutlashayotgan ekanlar. To'g'risini aytсам, bu kun men ham qayta o'quvchi bo'lib, o'z o'qituvchim bag'riga o'tilgim keldi. Garchand maktabni bitirganimga hali ko'p bo'lmasa ham dugonalarimni va bilim bergan ustozlarimni sog'indim.

Maktab hovlisiga mahalla oqsoqoli, tuman hokimi o'rinbosari, maktab direktori va shu maktab o'qituvchilari jam bo'lishdi. Bitiruvchilar qalblaridagi samimiy tuyg'ularini o'zlarining go'zal she'rlari va kuy-qo'shiqlarida namoyon qildilar. Yig'ilgan mehmonlarning barilari qalblaridagi eng ezgu niyatlarini bildirib, bitiruvchilarga oq yo'l tiladilar. Bayram yakunida bitiruvchilar «XAYR MAKTABIM» qo'shig'ini ijro etishdi. Ana

kuylanayotgan paytda ayrim o'quvchilarning ko'zlari yoshga to'ldi.

Tadbirdan so'ng men maktab direktori Azimbek To'xtabekovga murojaat qildim va ular o'z o'quvchilarga tilaklarini bildirdilar. To'g'risini aytсам, ayni

vaqtda o'zim ham hayajondaman. Bu kun o'quvchilarimiz yangi hayotga asta qadam qo'yar ekanlar, avvalo barchalariga omad tilayman. Har birlari orzu qilgan oliygoh talabasi bo'lsinlar. Qayda bo'lishsa ham ustozlari bergan o'g'itlarni unutmay, kelajak uchun munosib farzand bo'lib yurishsin.

Tanlagan yo'llari doimo ezgulikka boshlasin.

Men ham ustoz tilagiga chin dildan qo'shildim.

Shahlo MUTALOVA.

KIM BO'LSAM EKAN?

Bu savolni maktab bitiruvchilari o'zlariga berishayotgan bo'lishsa ajab emas. Albatta har bir insonning o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadi bo'ladi va shu maqsadiga erishishga intiladi. Bunday tengdoshlarimizni ko'rganda quvonamiz.

Lekin... Masalaning lekin tomoni shundaki, maktabni bitirish taraddudida turgan yoshlar haligacha o'z maqsadlarini aniqlay olmay, hayronlar. Kim bo'lmoqchisiz? - deb so'ragudek bo'lsangiz, «Uydagilar bilishadi. Qayerga olib kirgizishsa, o'sha yerda o'qiyman yoki ishlayman», - deb bosh qashishadi. Nahotki ularning o'z mustaqil fikri bo'lmasa?

Yoki bo'lmasam, ayrim tengdoshlarimiz tanlagan kasblariga uydagi ota-onalari qarshilik qilishayotgani haqida kuyinib aytadilar. Lekin inson o'z maqsadi yo'lida astoydil kurashsa, albatta orzusi ushaladi, to'g'ri emasmi? Siz nima deysiz?

*Nargiza JAMOLOVA,
Toshkent shahar,
Shayxontohur tumanidagi 39-
tayanch maktabining 9-«A»
sinf o'quvchisi.*

ERTAKLARINGIZNI SOG'INDIM, BUVI

Bolaligim, ayniqsa, buvijonimning ertak aytishlarini sog'indim. Hamon yodimda. Bolaligimda har oqshom yangi-ertaklar aytib berar edilar. Buvimning goh dahshatli, gohida achinarli ertaklarini tinglab uxlab qolar edim. Tongda turib esa yana ertak aytishlarini erkalanib so'rardim. Buvijonim esa, oppog'im, ertak faqat tunda aytiladi. Kun botsin, kech kirsin, men esa senga yana ko'p ertaklar aytib beraman, der edilar.

-Buvijon! Bugun qurbaqani malikaga aylanib qolganini, yo'q-yo'q, yaxshisi Zumrad bilan Qimmatni aytib bering.

-Xo'p, xo'p qo'zichog'im.

Ha, bu kunlar allaqachon o'tib ketdi. Mana, yoshim 18 ga kirdi. Bolalikning sho'x-sho'x damlari ketib, yoshlik gashtini surayotgan bo'lsam-da, lekin goh-gohida men o'sha o'tgan kunlarga qaytishni istayman.

Buvijonimning tizzalariga boshimni qo'ysamu ular sochlarimni silab, yana ertak aytadilar.

Ha, buvijon! Sizning ertaklaringizni sog'indim.

*Adolat
FAYZIYEVA,
talaba.*

KONSTITUTSIYANI BILASIZMI?!

Davlat ramzlaridan biri Konstitutsiyadir. Konstitutsiya bu kelajakka boqish demakdir. Yoshlarni kelajagimiz, ya'ni bosh qomusimiz bilan tanishtirishimiz lozim. Avvalambor Konstitutsiya yoshlarga nima beradi? - degan savolga javob izlaylik. Bu ularni mustaqil fikr qilishga, din va vijdon erkinligiga undaydi. Hamda o'z huquq, burchlarini bilishga o'rgatadi. Konstitutsiyamiz 6 bo'lim, 16 bob, 128 moddadan iborat. Biz ularni o'rganish jarayonida hayotda, jamiyatda o'z o'rnimizni topishga intilamiz.

Kelajagi buyuk davlat uchun komil vorislar kerak. Shunday ekan, aziz tengdoshim, sizni ham qomusimizni puxta va izchil o'rganishga chaqiraman.

*Farangiz HATAMOVA,
Avazbek qizi, Andijon shahar*

A. Cho'lpon nomli 2-gimnaziyaning 6-«B» sinf o'quvchisi.

NAVBAT- BADIY KITOBGA

Tengdoshimiz Javohir Nazarov ancha bilag'on chiqib qoldi. U «Yoshlar kanali»ning radioeshittirishida «O'zbekistonni bilasizmi?» deb nomlangan viktorinaning g'olibi bo'ldi. Shu bahona Javohirni tabriklab, gapga soldim.

- Men Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi 1- maktabning 7- «D» sinfini a'lo baholar bilan yakunladim. Sinfimiz o'quvchilari bir-birlari bilan juda ahil. Mabodo sho'xlik qilgimiz kelsa qizlarga suv sepamiz, soch to'nog'ichlarini olib qochamiz. Biroq sinf rahbarimiz Hakima opa Fayozova bu ishimiz yaxshi emasligini doimo uqtiradilar.

Endi esa yozgi ta'tilda sinfdoshlarimizni sog'inamiz, ularsiz zerikib qoladigan bo'ldik. Ko'plab sinfdoshlarim qatori men ham ushbu o'quv yilini faqat a'lo baholar bilan yakunladim. 5- sinfgacha darslarimni dadam nazorat qilardilar. Keyingi yillarda esa darslarimni o'zim mustaqil tayyorlaydigan bo'lganman, dedi Javohir.

Javohir bo'sh vaqtlarida badiiy kitoblar o'qishni yaxshi ko'radi. Shu o'quv yilida «Uch qalb», «Shirin qovunlar mamlakati», «Onamning yurti» kabi kitoblarni mazza qilib o'qib chiqibdi. Ta'til davomida esa bundan ham ko'proq badiiy kitoblar bilan tanishish ishtiyoqida.

*Iskandar ODILOV,
Hamza tumanidagi 206- maktab o'quvchisi.*

O'ZBEKISTON YOSHLARI

Ko'p marta guvohi bo'lganimizdek, matbuotda, oynai jahonda «Yoshlar kitob o'qishyaptimi?» - degan savol o'rta tashlanmoqda.

Bu savolga albatta «Ha» deb javob berishimiz mumkin.

Chunki XX asr yoshlari bilan XXI asr yoshlarini hech qachon tenglashtirib bo'lmaydi.

XX asrdagi yoshlarga sharoit yo'q bo'lgan, ularga o'qib olim bo'larmiding, deb ularni kelajakka boquvchi ko'zlarini parda bilan yopib, ularning o'qish uchun harakatlarini so'ndira boshlaganlar. XXI asr yoshlari esa kelajakka ishonch bilan boqa oladilar. Ularga yaratib berilayotgan sharoitlarning cheki yo'q.

Men masalan: «Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati»ni olaylik, ular yoshlarga yaratib berayotgan sharoitlardan biri yoshlar o'z fikrlarini minbardan bemalol bayon qila oladilar.

Bundan ko'rinib turibdiki, har bir yosh o'z fikriga, irodasiga ega bo'la oladi va bunga harakat qiladi. O'z fikriga ega bo'lgan yosh kelajakda o'z o'rnini topa oladi, demakdir. Bunday yoshlarga bemalol O'zbekistonni topshirish mumkin. Chunki ulardagi vatanga bo'lgan muhabbati, ishonchi O'zbekistonni dunyoga ko'rsatamiz, degan niyat bu.

Bugungi yoshlar O'zbekistonimizning kelajagidir va bu yoshlar kelajakka dadil odimlamodalar.

*Axror AHMEDOV,
Sobir Rahimov tumanidagi
11-maktabning
9-«A» sinf o'quvchisi.*

«...Хеч ким четдан келиб бизнинг бирор муаммомизни ҳал қилиб бермайди, фарзандларимизни тўғри йўлга бошламайди. Аксинча, бу жараёнга ташқаридан аралашадиганлар фақат ўзининг ёвуз ва ғаразли таъсирини ўтказишга ҳаракат қилади.

Шунинг учун ўз фарзандларимизни фақат ўзимиз тарбия қилишимиз, уларнинг ёт кучлар таъсирига тушиб қолишига асло йўл қўймаслигимиз даркор.

Ғаразли мақсадлар, ёвуз ниятларга эришиш учун зарарли ғоялар ва турли сиёсий марказларнинг катта маблағларига таяниб иш кўрадиган бундай вайронкор кучлар ҳаётимизнинг энг нозик ҳалқаси - унинг-ўсиб келаётган фарзандларимиз ҳаётига зарба бермоқчи. Турмушнинг аччиқ-чучугини кўрмаган, оқ-қорани таниб улгурмаган, дунёқарши шаклланмаган, ҳали иродаси бўш ёшларимизни йўлдан уриб, тинчимизни бузмоқчи, ҳар бир уй, ҳар бир хонадонга диний адоват уруғини сочмоқчи.

Шунинг учун ҳам биз бугун тарбия масаласига улғу маърифатпарвар Абдулла Авлоний айтгандек: «Тарбия биз учун ё ҳаёт - ё мамот, ё саодат - ё фалокат масаласидир», деб қатъият билан қарашимиз керак», дейилади. Ўзбекистон ижодкор зиёлилари, фан ва маданият намояндаларининг мамлакат жамоатчилигига муражаатига. Болаларимиз онгига мамлакатимиз сиёсати, тинчликпарвар ғоясини синдирадиган матбуот органлари, хусусан «Тонг юлдузи» обунаси иккинчи ярим йилликда қай аҳволда? Шу хусусда мутасаддилар билан суҳбатлашишга ошиқдик.

Аммо, Қашқадарё вилояти халқ таълими бошқармаси бошлиғи билан суҳбатимиз якунланмасидан ўртадаги телефон алоқаси узилиб қолди. Орадан ҳеч қанча вақт ўтмасдан котиба қиздан «Бошқарма бошлиғи йўқлар» деган жавобни олдик. Начора, айб телефонда деб қўя қолдик-да.

Бироқ бизнинг кўнғироқ қилишдан мақсадимиз, фақат обунани билиш эмас, балки ўқувчилар ўқув йилини қандай якунлаганликлари, таътилда нима юмушлар билан банд бўлишлари, оромгоҳлар уларни кутиб олишга шайми, шулар ҳақида ўзларидан эшитиш эди.

Хайриятки, Наманган вилояти

OBUNA - UZLUKSIZ JARAYON

халқ таълими бошқарма бошлиғи Дилшодхон опа БОБОХОНОВА билан осонгина боғландик.

- «Тонг юлдузи» газетасининг ҳар бир сонини қолдирмай кузатиб бораман. Фикримнинг исботи учун охириги 25 май сонидagi «Навоий севган дарахт» мақоласини муҳокама ҳам қилдик. Шеърларини невараларимга ўқиб бердим. Катталар қатори болалар ҳам ўқув йили давомида ўз газеталарини севиб ўқидилар. Уч ой таътил даврида ҳам газета билан ҳамнафас бўлишларига ҳаракат қиламиз.

1 июндан оромгоҳларимиз ўқувчиларни ўз бағрига олади. Ўтган йили ўқитувчиларнинг фарзандлари учун Косонсойда «Умид» номли оромгоҳ ташкил қилинди. Унда 1200 нафар ўқувчи хордиқ чиқаради. Чуст туманидаги «Меҳртой» номли оромгоҳда эса Меҳрибонлик уйининг 150 нафар болалари дам оладилар. Бундан ташқари шаҳарда жойлашган мактаблар қошида ҳам соғломлаштириш оромгоҳлари мавсумга шай бўлиб турибди. Улар учун кутубхоналарга керакли китоблар келтирилди. Газета-журналларнинг янги-янги сонлари етказиб турилади. Сир эмас, обунани мавсумида сонга эътибор берибмиз ўқувчилар бир йилга обунани бўлдиларми, бир ойгами, бу жиҳатларига эътибор бермабмиз. Энди обуначиларимиз сонини ярвар ойидаги кўрсаткичга тенглаштириш муаммоси турибди. Болалар

газетхон бўлса ўқишга, мамлакат сиёсатидан хабардор бўлишга интилишади. Интилувчан, билимдон болаларни камол топтириш бизнинг асосий вазифамиздир. Менимча, Республика болалари ва ўсмирлари газетасига болаларни мажбуран ёздириш керак. Чунки арзимаган пулларини обунани учун эмас, аллақандай кўнғилочар

ўйинлари ялтироқ қоғозли хордиқ сақичларига ишлатиб юборишади улар. Мен мактаб директорлари, азиз ҳамкасбларимни бу борада жиддийликка чақираман. Ахир бизни ҳам ўз газета ва журналларимизга мажбуран обунани қилишганди-ку!

Зухра РЎЗИМАТОВА - Хоразм вилояти халқ таълими бошқармасининг маънавий - маърифий ишлар бўйича етакчи мутахассиси :

- Вилоятимизда бу йил 38 та оромгоҳ ташкилланган. Унга бир ярим мингдан зиёд бола йўлланма олади. Урганчдаги «Боғи эрам» оромгоҳида 80 нафарга яқин иқтидорли қизлар дам олади. Ушбу оромгоҳ инглиз тилига мослаштирилган. Унга танлов асосида ўқувчи ва тарбиячиларни жалб қилдик. Асосан чекка қишлоқ мактабларидан келган иқтидорли қизлар танлаб олинди. Шу билан бирга вилоятимиздаги беш мингдан ортиқ болалар Тошкент ва Тошкент вилоятидаги сўлим оромгоҳларда дам олиши мўлжалланган.

Уйда дам олаётган ўқувчиларимизга ҳам бефарқ эмасмиз. Маҳалла посбонлари-ўқувчилар гуруҳини ташкилладик. Улар ҳар бир боланинг хатти-ҳаракатини назорат қилиб борадилар. Спорт мусобақалари, шунқорлар, маҳаллами болалари каби тадбирларни ўтказадилар.

Бундан ташқари касб-хунарга мойилиги бор ўқувчиларни маҳалладаги устозларга бириктириб қўйдик. Хо-

размлик ўқувчилар сони обунани борасида унчалик кўп эмас. Аммо «Тонг юлдузи»да тез-тез хоразмлик ўқувчиларнинг мақолалари чоп этилади. Бундан камсонли обуначиларимиз ўз газеталарига бефарқ эмаслигини ҳис қиламан. Хатони тўғрилашга кеч эмас. Иккинчи ярим йиллик учун ўқувчиларимизнинг ҳар ўн нафаридан биттаси ўз газетасига обунани бўладилар, деб ваъда бераман. Қолаверса, бу бизнинг вазифамиздир.

Анвар МАМАЖОНОВ - Андижон вилояти халқ таълими бошқармасининг мониторинг бўлими етакчи мутахассиси:

- «Тонг юлдузи» газетасининг обунаси билан шахсан ўзим тўрт йилдан бери шуғулланаман. Бу йил халқ таълими вазири «Тонг юлдузи» газетаси учун обунанинг ёмон эмас, дедилар. Бу албатта йил бошида эди. Ўқувчилар уч ой, олти ойга газета-журналларга обунани бўладилар. Йил якунида ўз-ўзидан обунани кўрсаткичи тушиб кетади. Шунинг учун келаси йилдан йиллик обунани қабул қилишни кўзлаб турибмиз.

Ўқувчиларимизни ёзги таътилга ҳам кузатдик. Айримлари оромгоҳларда, айримлари уйда дам оладилар. Ўқувчилар таътилни қаерда ўтказмасинлар, албатта катталар назоратида бўладилар. Кўплаб мактабларимизда айрим фанлардан паст ўзлаштирган ўқувчилар учун мониторинг хоналари ташкилланди. Улар ўз ўқитувчиларидан таътил мобайнида қўшимча сабоқ оладилар. Асосан битирувчи 9-,11-синфларни жалб қилдик. Ҳозирча ҳаракатларимиз яхши кетаяпти. Вилоятимиздаги фанлар чуқурлаштирилиб ўтиладиган 32 та лицейимиз ўқувчиларининг 89,3 фоизи олий ўқув юртига қабул қилинаёти. Обунани масаласида яна жиддийроқ ишга киришаман, шекилли. Йил тугашига олти ой бор. Уч ойга, тўрт ойга, керак бўлса бир ойга обунани қилиш ишларини бошлаб юбордик. Бунинг учун ҳомий ташкилотлар ҳам қараб турмайди. Мақсадни аниқ тушунтира билиш керак.

Феруза ОДИЛОВА ёзиб олди.

Aziz bolajonlar! Orangizda soya-salqin maskanlarda joylashgan oromgohlarda dam olishni, ayniqsa, baland-baland tog'larga sayohatga chiqishni xohlamaydiganlar topilmasa kerak-a? Axir ne mashaqqatlar bilan cho'qilarni zabt etish, kechalari gulxanlar yoqib, qo'rida kartoshka ko'mib yeyish, tunni tongga ulab, suhbatlar qurishning zavqiga ne yetsin?! Lekin sayohatga chiqishning o'z qonun-qoidalari borligini ham bilasizmi? Buning uchun maktabingiz yoki mahallangizdagi to'garaklarga a'zo bo'lishingiz kerak. Bugun a'zo bo'lsam, ertaga toqqa chiqaveraman, deb o'ylasangiz, yanglishasiz. Dastlab... Keling, yaxshisi Xalq ta'limi vazirligi respublika yosh sayohatchilar va o'lkashunoslar markazi uslubiy bo'lim boshlig'i Sofiya opa FOZILOVAning maslahatlariga quloq tutaylik. Markazda umumta'lim maktablari, o'quv muassasalari, turar joylar va mahallalarda joylashgan barcha turdagi to'garak rahbarlari uchun dasturlar, tavsiyanoma va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqiladi. Maqsadlari - bolalarning maktabdan bo'sh vaqtlarini qamrab olish, ularga o'z o'lkalari tarixini o'rgatishdan iborat.

- O'lkamiz tarixini o'rganish uchun har bir bola dastlab o'z uyi, ko'chasi, mahallasi, maktabining tarixini bilishi lozim,-deydilar Sofiya opa.- Shu maqsadda mahallalarga sayohatlar uyushtiriladi. To'garak a'zolari ko'chasining nomi nega bunday atalishi, maktabining bog'ida necha turdagi daraxtlar o'sishi,

foydayu zarari, ularni kim parvarish qilishi, mahallasidan oqib o'tadigan anhor tarixi kabi arzimadek bo'lib ko'ringan ma'lumotlarni o'rganishadi. Mashg'ulotlarda yetarlicha bilim va tajribaga ega bo'lganlarga tog'larga sayohatga chiqishadi.

Markazimiz tashabbusi bilan har yili respublika miqyosida «Iqtidorli bolalar» anjumani o'tkaziladi. Unda sayyohlik

chiqishni intiqlik bilan kutishadi. Ularni Xo'jakent, Bildirgisoyga, Qoronqulsoydagi sayyohlik qo'nimgohimizga olib boramiz. Bir necha kun otonalarining

palatkalar, sayyohlik anjomlari namoyish etildi. Quvonarlisi, ular o'z mahsulotlarini sotib, tushgan mablag'ning ma'lum bir qismiga sport kiyimlari, oziq-ovqatlar sotib olishar, sayru sayohatlarga chiqishar ekan. Qolgan qismini esa maktabni ta'mirlash ishlariga, kam ta'minlangan oilalarning farzandlariga kiyim-bosh, darsliklar, o'quv qurollari sotib olishga ishlatishar ekan.

Markazimizda to'garaklar bo'yicha sinov maydonchalari tashkil qilganmiz. 24 yo'nalishda ishlab chiqilgan dasturlarni viloyatlardagi moslashtirilgan maktablarda sinab ko'rdik. Natija esa biz kutgandan ham a'lo bo'ldi. Namangan shahridagi 40-maktabning 1-toifali o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, «Adabiyot va o'lkashunoslik» to'garagi rahbari Mohira Mamatova mazkur dasturimizni bir yil davomida sinovdan o'tkazib, o'z joyining tabiati, sharoitidan kelib chiqqan holda yangiliklar olib kirdi. To'garaklar mashg'ulotlari yetarlicha bal to'plagan o'quvchilarimiz toqqa sayohatga

chiqishni intiqlik bilan kutishadi. Ularni Xo'jakent, Bildirgisoyga, Qoronqulsoydagi sayyohlik qo'nimgohimizga olib boramiz. Bir necha kun otonalarining

ko'magisiz o'zlariga sharoit yaratib yashashadi. Go'sht mahsulotlarini yerga ko'mib qo'yishadi. O'zlari ovqat pishirib, gulxanlarda choy qaynatib ichishadi. Shuning barobarida atrof-muhitni kuzatishadi, dorivor o'simliklar, hasharotlarning xususiyatlarini o'rganishadi. Kechalari uxlamay, chiroqli hasharotlarning ovozigacha quloq tutishadi. Oralarida qo'shiqchilari ham, suratkashlari ham bor. Yoz oylariga mo'ljallangan barcha tadbir va musobaqalarimiz sayyohlik bazamizda bo'lib o'tadi. YAqinda bo'lib o'tgan musobaqada Toshkent hamda Jizzax viloyati vakillari juda yaxshi qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritishdi. Ularning tog' sharoitida turli xil murabbarlar, xo'l mevalar non ushoqlaridan tayyorlangan chiroyli, mazali tortlarini tatib ko'rsangiz edi. Yana qo'shiqlar tanlovi ham uyushtirildi. G'olib o'quvchilar Xalq Ta'limi Vazirligining Maqto'v yorliqlari bilan mukofotlanishdi.

Mana, yozgi ta'til kunlari ham boshlandi. Endi deyarli barcha

to'garaklarimiz o'z faoliyatlarini oromgohlarda davom ettirishadi. Dam oluvchi bolalarga sayyohlikni o'rgatishadi, ularni muzeylarga, botanika bog'lariga olib borishadi, tog'larga chiqishadi...

Zuhra opa Konstantinova bilan hamkorlikda «Tabiat mo'jizasi» nomli to'garak tashkil qilganmiz.

Bolalarga keraksiz plastinkalar, qamishlar, quruq gul yaproqlari, matolar yordamida turli tarixiy obidalar, tabiat manzaralari yasashni o'rgatib kelyapmiz. O'z qo'llari bilan yasagan buyumlaridan ko'rgazmalar tashkil qilamiz, ularni bayramlarda onalari, ustozlariga bajonidil sovg'a qilishadi. To'garagimiz a'zolari o'zlari o'rganib olgan hunarlarini oromgohlardagi tengdoshlariga ham o'rgatishni rejalashtirishyapti.

Sofiya opaning rejalari mo'1. Muhimi, ularning barchasi siz bolajonlarning dunyoqarashingizni kengaytirishga, bilimlaringizni boyitishga, yozgi ta'til kunlaringizni maroqli va foydali o'tkazishga qaratilgan. Bu borada opaga omadlar tilab qolamiz.

Feruz JALILOVA.



Muxlisa

MIRJALILOVA:

-Baholarim «4» va «5». Bugungi tadbir boshlovchilik qilaman. Shuning uchun ham avvalom bor sizga, «Xush keldingiz», deymen. Sochimning chiroyli turmaklanganiga qarayapsizmi? Uni oyim turmaklaganlar. O'zlari ham shu maktabda chizmachilikdan dars beradilar. Ismlari Feruza. Bayramona ko'ylagimni esa Dilorom amman tikib berganlar.

Diyora SODIQOVA,
Sevara SOIPOVA:

-Biz muchal to'yiga bir oy tayyorgarlik ko'rdik. Bugun ham hamma joylarni tozalab, pollarni artib chiqdik. Zalni sharlar bilan yasatdik. Plakatlar chizdik. Zalning polini xarchand artmang, baribir oqarib qolaveradigan bo'lib qolgan. Boshqatdan bo'yoqlasak, yangidek bo'lib qoladi. Shuning uchun ham polimizga ayb qilmaysiz.

Valijon XO'JAYEV:

-To'rt va besh baholarga o'qiyman. Fransuz, rus tillarini yaxshi bilaman. Ingliz tilini endi o'rganayapman. Qancha ko'p tilni bilsa, shuncha yaxshi ekan. Aytishadi-ku, bir tilni bilgan bir inson, ikki tilni bilgan ikki inson, deb.

Bo'sh vaqtlarimda doira to'garagiga, kikkoksing mashg'ulotlariga qatnayman. Yozgi ta'tilda esa Chimyon tomonlardagi oromgohda dam olaman. Ammamnikiga boraman. Ammamning men tengi Ulug'bek ismli o'g'illari bor. U bilan kitob o'qiyamiz, turli o'yinlar o'ynaymiz, boshqotirmalar yechamiz. Xullas, ta'tilni yanayam maroqli o'tkazish niyatidaman.

Durdona YUNUSOVA:

-Chindan ham maktabimizda muchal to'yi birinchi marotaba o'tishi ekan. Buni bizning sinfimiz boshlab berdi. Barcha tadbirlarda, bellashuvlarda sinfimiz faol va doimo g'olib. Buning sababi bir- birimiz bilan ahilligimizda, deb bilaman. Yozgi ta'til davomida ularni sog'inaman.

Doniyor KASANOV:

-Men ham doira chalaman. Valijon do'stim bilan birgalikda

kikkoksing bilan shug'ullanayapman. Bir yarim yil bo'ldi. Trenerimiz Nodir akadan kikkoksing sirlarini o'rganayapman. Yaqinda Andijon viloyatida kikkoksing musobaqasi bo'lib o'tdi. Men ham ishtirok etdib, unda uchinchi o'rinni oldim. Maqsadim - yaxshi sportchi bo'lish. Chunki kelajakda uchuvchi bo'lishni orzu qilaman.

-Fransuz, rus tillarini yaxshi bilaman. Opacham Dildora 9-sinfda o'qiydi. Bilmaganlarimni ulardan o'rganaman. Qo'llarida doimo kitob. Gohida supurish-sidirish o'zimga qoladi. Bundan xafa bo'lmayman.

Sportning karate turiga qiziqaman. Ikki yarim yildan beri karate bilan shug'ullanaman. Ko'plab tuman, shahar

ham qatnashdim va ikkinchi o'rinni egalladim. «Maqtoy yorlig'i» bilan taqdirlandim. Esdalik uchun soat ham sovg'a qilishdi.

Kelajakda trenerimiz Mixail Galavanovich va Nafisa Pirnazarovadek snsey, ya'ni mohir murabbiy bo'lmoqchiman. Buning uchun esa tinimsiz mashq va yana mashq qilish kerakligini

sinf dan beri shu maktabda o'qiyapman. Bu sinf juda ahil va inoqligi bilan menga yoqadi. Biz barchamiz a'lo va yaxshi baholarga o'qishga harakat qilamiz. Shuning uchun ham asosan bo'sh vaqtimni kitoblar o'qish bilan o'tkazaman. Qo'shiq tinglashni yoqtiraman, raqsga tushaman, ipakdan turli naqshlar tikaman. Buvijonim Maxsuda aya doimo menga odob-axloq haqida, yaxshiliklar haqida ko'p o'g'itlarni o'rgatadilar. Men katta bo'lsam san'atkor bo'lmoqchiman.

Nigina NURMATOVA,
Sevara YUNUSOVA:

-Bizning niyatimiz -advokat bo'lish. Biz yomon insonlarning jinoyatlarini fosh qilib, yaxshi insonlarga haqiqatni yuzaga chiqarishda ko'maklashmoqchimiz. Haqiqat egilsa ham sinmasligini isbot qilmoqchimiz.

Dilafroz FAYZIYEVA:

-Men mohir tikuvchi bo'lmoqchiman. Hozir ham ko'ylakchalar tikaman, shapka va sharflar to'qiyman. Oyim aytishlaricha, qiz bolaning qo'lida hunari bo'lishi kerak ekan.

Umida YUNUSOVA:

-Ulg'aysam, Fransiya elchixonasida tarjimon bo'lib ishlamoqchiman. Shuning uchun ham hozirdanoq fransuz tilini mukammal o'rganishga harakat qilmoqdaman.

Dilafroz XO'JAYEV:

-Men o'zimning orzuim haqida gapirmoqchiydim. Katta bo'lsam, bolalar shifokori bo'lmoqchiman. Bolalarning yuzidan tabassum arimasligini istayman. Hech qachon yig'lashmasin, deymen.

Nigora, Nilufar

ABDUQODIROVALAR:

-Biz opa singillarmiz. Bir yoshga farq qilsak-da, xuddi egizaklardek bir ilimiz. Doimo birga yuramiz. Ulg'aysak shifokor bo'lamiz. Buning uchun biologiya, ximiya va anatomiyani yaxshi bilish kerak ekan. Hozirdanoq zamin tayyorlash maqsadida faqat a'lo va yaxshi baholarga o'qishga harakat qilyapmiz.

MUCHAL TO'YING MUBORAK, BOLAKAY!

A s l i d a sinf haqida
muchalning o'zi to'liqlanib
nima? Agar istasangiz men gapirdilar:
qisqacha so'zlab beray. Yilni o'n ikki
hayvon nomi bilan atash odati va 12
yillik davr bilan vaqt hisoblash an'anasiga
yaqinda Amerikadan mutaxassis kelib, 5- «A» sinf
o'quvchilari bilan davra suhbatini o'tkazdi, shu
sinfimiz haqida yaxshi fikrlar bildirdi.
Undan tashqari maktabimizda til
markazi ham faoliyat ko'rsatadi.
Unga o'quvchilar darsdan
tashqari qatnashadilar.
Yaqinda Fransiya
elchixonasi bilan
hamkorlikda «Men fransuz
tilini sevaman» mavzusida
festival o'tkazdik. Shahar
miqyosida bo'ladigan bu
tadbir har yili maktabimizda
o'tkaziladi. Unda maktabimiz
o'quvchilari faol qatnashadilar.
Ayniqsa, ushbu sinf juda ham
faoldir. Umuman olganda har
tomonlama sinab ko'rsangiz, hech ham
uyaltirmaydilar. Sinf rahbari Gulmira
Xudoyberganovanning mehnati samarasi o'laroq 34
nafar o'quvchining, hammasi tirishqoq, maktab
formasida kelishadi, o'qishlari ham asosan «a'lo».
Biz bolalarning suhbatini maroq bilan
tinglab, oqqa ko'chirdik. O'qing,
tengdoshlaringizning orzu-o'yilari
bilan tanishing.

II minginchi yillar o'rtasida boshlanganligini hisobga olsak, muchal hisobiga asos solinganiga kamida 3,5 ming yil bo'ldi. Muchal hisobini avvalo turkiy va mo'g'ul xalqlari o'zlashtirishgan. 12 yillik hayvoniy davrga M u s h t a r i y (Yupiter)ning quyosh atrofida bitta to'liq aylanishi uchun ketadigan muddat - 12 yil qabul qilingan va har bir yil ma'lum hayvon nomi bilan atalgan. Muchal yillarining nomlarini barchangiz bilsangiz kerak-a? Sichqon, Sigir, Yo'lbars, Quyon, Baliq, Ilon, Ot, Qo'y, Maymun, Tovug, It, To'ng'iz. Mana bugun biz Yunusobod tumanidagi 51-maktab-gimnaziyasi 5- «A» sinf o'quvchilarining muchal to'yidamiz. Maktab rahbari Turdiyeva Mohira Muhammadjonovna bizni qarshi olar ekanlar, aynan shu



-Doniyor Xasanov bilan suhbatlashdingiz, endi uning «ukasi» bilan ham gaplashing.

-Meni ham gazetaga yozing, -bolalarcha quvnoqlik bilan suhbatimizga qo'shildi Doniyorning adashi Doniyor HUSANOV.

musobaqalarida ishtirok etganman. Har galgi bellashuvlardan ko'p yaxshi narsalarni o'rganaman. O'quv yili yakunida Toshkent viloyati, Chinoz tumani hamda Toshkent shahridagi karate klublari o'rtasida Chinozda musobaqa o'tkazildi. Unda men

ham yaxshi bilaman.

Sharofat MURABBOVA:

-Men avval 148-maktabda o'qiganman. Bu yerga ko'chib kelganimizdan keyin uchinchi

Muharrama PIRMATOVA va
Feruza ODILOVALAR yozib oldilar.

Qayot chechaklarni



Она, сен йиғлама, бу айриликда,
Кўнглимни куйдирган кўзинг йиғласин.
Ун ойки, соатнинг бахридан ўтиб -
Бир марта бормаган қизинг йиғласин.

Кўнгил тош, фалак тош, рўйи-замин тош,
Ҳасрат тошдай эзар елкаларимдан.
Ун ойки бир марта хабар олмадим,
Йўлимга жон тутган укаларимдан.

Яна борлигимга санчилар фироқ,
Яна жонни тилар соғинч излари.
Ана қайтиб келар кўнглимдай бўм-бўш,
«Бухоро-Тошкан»нинг автобуслари ...

Хув олис йўлларнинг адоғи қишлоқ,
Йўлларга тикилиб толарман бесўз.
Жонимни оғриққа тўлдириб ўтар -
Бухородан қайтган бўм-бўш автобус...

Усмон НОСИРнинг сўнги шеъри

Дарё бўлмоқ истадим бир кун,
Ойдаи тўлмоқ истадим бир кун.
Ёниб ўлмоқ истадим бир кун,
Ёниб ўлмоқ осон эканму?!

Шу қирланган хослар ичинда,
Булбули хор, зоғлари хушбахт.
Зокқа макон боғлар ичинда,
ШОИР бўлмоқ осонми айтинг?!

Баланд бўлгим келди кўқдайин,
Хур яшагим келди кўпдайин.
Ўлгим келди, яшаган сайин -
Баланд бўлмоқ ўлмоқдан оғир.

Эриб кетгим келди бир саҳар,
Дилда ағёр бўлса не ажаб.
Ғам харидор бўлса не ажаб,
Бир мен бедор ўлсам не ажаб.

Лек хушёрлик осон эканму?
Дайр тўла мастлар ичинда.
Мунофиқлар пастрлар ичинда,
Тонгдай тиниқ саслар ичинда.

Ёниб ўлгим келди музаффар,
Ҳасаддан хўл хаслар ичинда.
Шеърга қандай умримни тикай,
Шеърдан йироқ каслар ичинда.

Баланд бўлмоқ осонму айтинг,
Пойингдан ҳам пастрлар ичинда.
Ёниб ўлмоқ осонми айтинг?
Тутаб ётган хослар ичинда!

Дунё тош, фалак тош, рўйи-замин тош,
Соғинч тошдай эзар елкаларимдан.
Ман қандай опаман, хабар олмасам,
Қишлоғимда қолган укаларимдан.

Кўзимга осмондан санчилик ётар,
Бир олис дийдорнинг ғамгин излари.
Қаранг, ўтиб борар соҳилидай жим,
«Тошкан-Бухоро»нинг автобуслари.

Ёниб ўлмоқ керак барибир,
Баланд бўлмоқ керак барибир.
Хушёр бўлмоқ керак барибир,
Дайр тўла мастлар ичинда!..



Санобар МЕҲМОНОВА,
Ўзбекистон Давлат Жаҳон
Тиллари Университетининг
Халқаро журналистика факультети 1-курс талабаси.

Dunyoda ko'plab qiziqarli o'yinlar bor. Shunday o'yinlardan birida faqat qizil rang ishtirok etar ekan.

O'yin qatnashchilarining barchasi qip-qizil rangga bo'yilib ketar, hatto uni tomosha qilganlar ham qizil bo'yoqdan tatib ko'rar

Bu o'yin Valensiya provinsiyasining Bunol shaharchasida (Ispaniyada) har yili pomidor pishganda bo'lib o'tadi. Odamlar bir-biriga pomidor otib o'ynaydigan o'yinning ham nomi pomidor so'zidan olingan bo'lib, uni TOMATINA o'yini deb atashadi. O'yin 1945 yil avgust oyida kashf qilingan. O'shanda bir nechta odam qahvaxonada bir-biriga hazillashib pomidor uloqtirgan va raqibini qizilga bo'yab rosa miriqib kulgan. Bu kulgu tashqaridagilarning ham e'tiborini tortgan, oqibatda kichkinagina

qahvaxonada boshlangan o'yin, endilikda butun bir shaharga yoyilib ketdi.

Pomidor uloqtirish o'yinida o'yinchilarning soni chegaralanmagan. Bu o'yinda ishtirok

etish uchun har yili Bunolga minglab odamlar tashrif buyuradi, hatto atayin shu o'yinni ko'rish uchun ko'plab sayyohlar bu yerga keladilar va ular ham pomidordan tatib ko'rishadi. Shu kuni uylar qizil rangga burkanadi, ko'chalarda qizil suvlar sel kabi oqadi. O'tgan yili tomatina o'yinida 30 mingdan ortiq odam ishtirok etgan va 120 tonna pomidor yetkazib berilgan. Pomidor yetishtiruvchi dehqonlarning oshig'i olchi, chunki odamlar pomidorni yemay qo'yishsa nima qilamiz, deb bosh qotirishmaydi. Ularga bu savolni bersalar, kulimsirab yemasalar ham bir-biriga uloqtirib mazasini bilib oladi, deb javob berib qo'yaqoladi.

QIZIQARLI QIZIL O'YIN

Angliya kompaniyasi Bi-Bi-Si Nyus Onlayn dunyoning barcha mamlakatlaridan eng so'nggi va qiziqarli ma'lumotlarni yig'ib, ommaviy axborot vositalari tomonidan berib boradi.

Mazkur kompaniya tomonidan ming yillikning eng mashhur siyosatchi ayoli nomiga munosib bo'lgan ayolni bilish maqsadida, dunyo bo'ylab jamoat fikrini o'rganib chiqdilar. Bunda ular asrning eng mashhur siyosatdon ayollarini ovoza qo'ydilar - Indira Gandi, Yelizavetta I, Ona Tereza, Mariya Kyuri, Margaret Tetcher, Janna Dark, ut San Suu Kvi (birinchi o'z qiziqarli liderasi), Eleonora Ruzvelt va boshqalarni.

MING YILLIKNING ENG MASHHUR AYOLI

Bo'lib o'tgan so'rovlarda turli xil fikrlar bildirildi. Moddiy tomondan ko'plab miqdorda pul sarflangan bo'lsada, Bi-Bi-SI Nyus Onlayn bu boshlab qo'yan ishi tarixda qolishini yaxshi tushunib, uni oxiriga yetkazishga qaror qildi. Natijada, darhaqiqat, ular ko'zlagan maqsadiga erishdilar. Ming yillikning eng mashhur siyosatdon ayoli nomiga ko'plab ovoz olgan hind ayoli Indira Gandi sazovor bo'ldi. Indira Gandi 1917 yil 19 noyabrda Hindistonning Olohobod shtatida tug'ilgan. Hindistonning yirik jamoatchi va davlat arbobi to'liq ismi Indira Priyadarshni Neru talabaliq yillaridan boshlab Hindiston milliy ozodlik harakatida faol ishtirok etgan. Hindiston hukumati yuqori qatlamlarida faoliyat olib borgan Hindiston xalqi bu ayolni Hindiston ozodlik ramzi deb bilishadi.

Hozirgi zamonaviy qurol-yarog'larning imkoniyatlari aqlni shoshirib qo'yadi. Ammo ularning qudratini bir narsa, ya'ni porox ta'minlaydi. Porox Xitoyda ixtiro qilinganligini yaxshi bilamiz. Ammo uni ixtiro qilinish jarayoni juda qiyin kechgan va bunga ko'p yillar sarf bo'lgan. Asosan porox tarkibini kaliy selitrasi, oltingugurt va pistako'mir tashkil qilgan. Eramizdan avval VI-asrdayoq xitoyliklar kaliy selitrasi va oltingugurtdan foydalanishni yaxshi o'zlashtirishgan edi.

Alximiklar ko'p yillar davomida porox tarkibini o'rganib, ko'plab tajribalarda qo'llab ko'rib, shu narsaga amin bo'lishdiki, bu moddalar tez alanganishi bilan g'ayri tabiiy edi. Moddalar pista ko'mir bilan ma'lum temperaturada aralashirilganidan undan portlovchi narsa vujudga kelgan. Shunday qilib xitoyliklar poroxni ixtiro qilishga muyassar bo'ldilar.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, yana bir narsaga amin bo'lamizki, porox Xitoyda Tan sulolasigacha, ya'ni taxminan VII-asrda paydo bo'lgan. Porox harbiy sohada Tan sulolasining so'nggi hukumronligi kezarida qo'llanila boshlangan (X asr), o't otuvchi qurollar masalan,

«xotsyu» deb nomlanuvchi olovli to'plar, «xoyzili» o't purkagich, «pelipao», ya'ni qo'rqinchli ovoz chiqaruvchi qurollar va «gtentenley» ya'ni minalar X-XIII asrlarda Sun sulolasi davrida qo'llanilgan.

VIII -IX asrlarda kaliy selitra Xitoydan arab davlatlariga «Xitoy qori» yoki «Xitoy tuzi» nomi bilan kirib boradi. Xitoyliklar poroxni avval mushakbozlikda, keyinchalik esa harbiy ishda qo'lladilar. Porox yondiruvchi snaryadlarga solinardi. XIII-asrda porox yordamida bambuk trubkasiga o'xshash miltilar, o'totuvchi qurollar paydo bo'ldi, shu kabi qurollar g'arbga ham kirib boradi. Shunday qilib porox G'arbda Xitoyga nisbatan 600 yil keyin, o'totuvchi qurollar 300 yil kech tarqala boshlagan.

Kompas - qadimgi Xitoy ixtirolaridan biridir. Xitoyda rudalarni qazib olinishi natijasida (eramizdan avval 770-221 yillar) yerning tortishish kuchiga to'g'ri yo'naluvchi bu metallarga tortishuvchi magnitli temirni aniqlashadi. «Sinan» - birinchi bo'lib qoshiq ko'rinishida bo'lib, kompas vazifasini bajargan.

Ming yildan ko'p vaqt o'tgach, 960-1279 yillar Sun sulolasi hukmdorligi vaqtida

sun'iy magnitdan ishlangan strelkali kompas ixtiro qilinadi. Xitoylik mashhur olim Shen (1031-1095-yillar) kompasga bir qancha o'zgartirishlar kiritib, uni takomillashtiradi va sun'iy magnitli strelka yordamida aniq og'ish burchagi (kompasning magnit strelkasi bilan geografik meridian o'rtasidagi burchak)ni ko'rsatib beradi.

XI-asr boshlariga qadar

xitoylik dengizchilar tomonidan kompas keng qo'llanilgan. XV asr boshlarida dengizchi Chjen Eye (1371 -1435) g'arbga yetti marotaba ekspeditsiya uyushtirgan, muvaffaqiyatli sayohatida kompas unga to'g'ri yo'l ko'rsatgan. Kompas yordamida u Xitoydan Hindixitoy yarimorollariga, Malayziya arxipelagiga, Hindiston, Fors va arab davlatlariga borib yetadi, so'nggi sayohatini sharqiy Afrika qirg'oqlariga uyushtiradi. XII - asrlarda Xitoy va Arab davlatlari o'rtasida dengiz yo'llari ochilishi kompasning arablarga ham kirib borishiga sabab bo'ladi va keyinchalik g'arbga yetib boradi.

XV-asrda buyuk kashfiyotchilardan biri Kristofor Kolumb Atlantika okeanidan o'tib, Amerikani ochishida ham

... IXTIROLAR

TINCH YASHASHGA HAQQIM BORDIR

Isroil sobiq bosh vaziri Yohud Barak bo'lib o'tgan saylovda Ariyel Sharonga bosh vazirlik layozimini berib qo'ydi. Barak saylovdan so'ng Isroil mudofaa vaziri bo'lishi kutilayotgan edi. Barak tomonidan Ariyel Sharonga yo'llangan xatida siyosiy hayotdan butunlay ketishini bildirgan.

Barak davrida Isroil va Falastin o'rtasida ko'plab muzokaralar o'tkazilgan, mintaqadagi tez-tez alanga olayotgan, yarim asrdan buyon davom etib kelayotgan urushlarga barham berish maqsadida. Ammo ikkala tomonning ham manfaatlari bir-biriga hech to'g'ri kelmadi, haligacha urushlar bo'lib turibdi.

Barakning siyosatdan ketishining sabablari deb shuni aytish mumkinki, Isroil va Falastin o'rtasidagi ziddiyatlarni to'xtata olmadi va buni anglagan holda shu qarorga keldi. Barakning fikricha, siyosatdan ketish bu tinch yashashdan voz kechish degani emas-ku, bir kun bo'lsa ham tinch yashashga haqqim bordir, degan fikrda yurgan bo'lsa kerak, ehtimol.

Yaponiya dunyoning eng rivojlangan mamlakatlariqatorida turadi. Yaponiya temir yo'li dunyoda eng yaxshi ko'rsatkichga ega, tez yurar va qulay poyezdlar ishlab chiqaradi. Yaponiya tez yurar poyezdlari Osiyoda birinchi, dunyo bo'yicha Fransiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Keyingi paytlarda tez yurar va xavfsiz poyezdlarning qatnovi uncha ko'ngildagidek bo'lmayapti. Chunki katta tezlikda kelayotgan poyezdlar tez-tez to'xtab, undagi yo'lovchilarning noroziligiga sabab bo'lmoqda. Poyezd haydovchilari to'xtashlarini g'alati sabablar bilan izohlashmoqda.

Ularning aytishicha, poyezdlarni shuning uchun

ular tashlarni olib tashlash uchun to'xtab qolayotganliklarini aytmoqdalar. Rels ustiga toshlarni kim terib qo'yayotganligini aniqlash natijasida, shu narsa ayon bo'ldiki, bu ishlarni qilayotgan jinoyatchi - qarg'a bo'lib chiqdi. Ha, kulgili bo'lishi mumkin, lekin qarg'ani tutish ham ancha qiyin ish ekan. Ammo qarg'ani oxiri tutishga muyassar bo'lishdi.

Qarg'ani chiroyli qafas ichiga joylashtirib, uni qamoqxonagami yoki hayvonat bog'igami, qayerga topshirishni bilmay boshlari qotib turibdi. Temir yo'l xodimlari qarg'a tutilganidan xursand bo'lishib, hatto o'ziga munosib nom bilan uni «terrorist qarg'a», deb atashmoqda.



TERRORIST QARG'A

rels ustiga terib qo'yilgan toshlar yo'ldan chiqarib yuborishi mumkin, uchun ular toshlarni olib tashlash uchun to'xtab qolayotganliklarini aytmoqdalar. Rels ustiga toshlarni kim terib qo'yayotganligini aniqlash natijasida, shu narsa ayon bo'ldiki, bu ishlarni qilayotgan jinoyatchi - qarg'a bo'lib chiqdi. Ha, kulgili bo'lishi mumkin, lekin qarg'ani tutish ham ancha qiyin ish ekan. Ammo qarg'ani oxiri tutishga muyassar bo'lishdi.

Qarg'ani chiroyli qafas ichiga joylashtirib, uni qamoqxonagami yoki hayvonat bog'igami, qayerga topshirishni bilmay boshlari qotib turibdi.

Temir yo'l xodimlari qarg'a tutilganidan xursand bo'lishib, hatto o'ziga munosib nom bilan uni «terrorist qarg'a», deb atashmoqda.

kompasning xizmati katta bo'lgan. XVI asr boshlarida esa Magelan kompas yordamida birinchi bo'lib yer yuzi bo'ylab suv orqali sayohat qiladi. Darhaqiqat, agarda kompas bo'lmaganida ular buyuk kashfiyotlar qilishi dargumon edi.

Qog'oz - Xitoyning ixtirolaridan biri. Eng qadimgi nusxalari eramizdan avval II-asrga taalluqli Siyanya shaharchasining Batsyao maqbarasida qo'llanilgani aniqlangan. Joyning nomiga qarab qog'ozni «batsyao» deb atashgan. Topilmalarga qaraganda qog'oz Xitoyda eramizdan avval 140-87-yillarda Xan imperatori Chdi davrida mavjud bo'lgan va undan tashqari arxeologlar tomonidan g'arbiy Xan davrida qog'ozlar Sinszyan, Szyuyyaxe (Gansu) va boshqa joylarda ham aniqlangan. Xan davrida (25-220 yillar) Soy Lunyu o'tmishdoshlarining tajribalaridan keng foydalanib, yupqa yozuv qog'ozini ixtiro qiladi. Uning yangi ko'rinishdagi qog'oz ishlab chiqaruvchi texnologiyasi birqancha oldinga qadam tashlaydi.

Xitoyda qog'ozning ixtiro qilinishigacha, toshbaqaning

kosasiga va hayvonlarning suyaklariga o'yib yozib kelingan, keyinchalik esa bambuk va daraxt taxtachalariga yozilgan, ammo shu vaqtlarda bu narsalarga yozish noqulaylik tug'dirar yoki qimmatga tushardi. Say Lunyuning yangi kashfiyoti Xitoy madaniyatining yuksalishga olib keldi va bu texnologiya tezda Xitoyning boshqa turli tomonlariga tarqalib ketdi. Shundan so'ng IV-asrning o'rtalarida Koreyaga, Yaponiyaga, VIII-asrda g'arbga va arab mamlakatlarigacha borib yetdi. 1150 yili g'arbda qog'oz ustaxonasiga dengiz orqali Ispaniyaga ko'chib kelgan arab ustalari tomonidan asos solingan.

Qog'ozni ixtiro qilgan Say Lunyu nomi Xitoy tarixiga oltin harflar bilan yozib qo'yilgan. Hatto uning sharafiga Layyan tumanida g'ishtdan qurilgan maqbaraning nomi Say Lunbyu deb ataladi, xuddi ana shu maqbarada hozirgacha uning ust-bosh kiyimlari, Qayqachi hovuzi saqlanib qolgan. Bu hovuz suvidan Say Lunyu qog'oz ishlab chiqarishda foydalangan.

(Davomi. Boshi gazetaning o'tgan sonlarida).

Kim ham madanshunos Habib Abdullayev, geolog Ibrohim Hamroboev, alkaloid Sobir Yunusov, huquqshunos Xadicha Sulaymonova, riyoziyotchi Sa'di Sirojiddinov, tarixchi Yahyo G'ulolmov, faylasuf Ibrohim Mo'minov kabi ulug'lar nomlarini bilmaydi, deysiz?

Faxr bilan aytamiz: Mustaqillik yangi yo'l-yo'riq, yangi yo'nalish, ya'ni mehnat qilishning barcha imkoniyatlarini ochib berdi. Demak, O'zbekiston ahli, iqtidorli va salohiyatli shaxslari bilan o'zlarining ijodiy va yaratuvchilik mehnatlari orqali buyuk ajdodlari yo'lidan bormoqdalar. Jahon taraqqiyoti uchun fan-texnika sohasida katta hissa qo'shmoqdalar.

Yunoniston olimlari eramizdan oldin o'z mehnatlari bilan ilm-fan o'choqlarini yaratdilar. O'zbekistonlik allomalar eramizning X-XV asrlarida yangicha ilmiy-nazariy tus berdilar. Hozir-chi? Istiqlol ularning uchinski tug'ilish, bunyodkorlik davrini boshlab berdi.

Asosiy Qonunimizda:

«Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat - jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi», deyilgan.

Bularning hammasi istiqloq, uning istiqbol uchun mehnat qilish va ijodkorligini oshirishga qaratilgan.



M A M L A K A T I M I Z D A qurilayotgan demokratik jamiyatning negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat mulki kabi xususiy mulk ham davlat himoyasidir.

Demak, xususiy ravnaq topishi davlatimizning boyishini, rivojlangan davlatlarga tenglashimizni ta'minlaydi. Konstitutsiyamizda davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqlarini va hududiy jihatdan bab-baravar muhofaza etishini kafolatlaydi, degan quyma jumlar bor. Bu jahon andozasiga ko'ra, birinchilardan bo'lib qonun asosida qayd qilinishidir. Shu bois ham Asosiy Qonunning «Jamiyat va shaxs» bo'limi yuzaga keldi.

Mehnat erkin va ijodiy bo'lsa — uning qadr-qimmatini oshaveradi.

Ota-onalar, aka-ukalarning, ishimizdan mamnunmiz, bizga yoqadi», so'zlarini eshitib quvonangiz, oilangiz to'kin-sochin bo'lganidan mamnunsiz.

Ishga havas, ijodiy qiziqish bilan borsangiz, natijasi yahshi bo'lishiga ishonsangiz — uning qadriga ne yetsin?!

Jahon mehnat ahli mehnat qilish, erkin, ijodiy mehnat qilish huquqi haqida orzu qilishadi. Mehnat ko'ngildagiday bo'lsa yana yaxshi. Bizda bu orzu-havas amalga oshgan. Bozor munosabatlari mehnati, chuqur iqtisodiy islohotlar mehnati — o'zligimiz, milliy g'urur, milliy ong va dunyoqarashimizni shakllantirmoqda.

BAXT Qomusimizda, «**Har kim bilim olish huquqiga ega.**

Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.



Maktab ishlari davlat nazoratidir», deb qayd qilingan.

Qonunga binoan barcha bolalar ta'lim olishga majburdir. Ular maktab orqasida qolib ketmaydilar. Marhamat, o'qi, bilimingni oshir!

«Ta'lim to'g'risida»gi qonunda esa ta'lim-tarbiya olishning barcha tamoyillari belgilab berilgan. To'qqizinchi sinfni bitirish majburiy. 10, 11, 12-sinlarda kasb-hunar o'rganish (kollejiar) va oliy o'quv yurtlariga kirish uchun akademik litseylarda o'qish ham majburiy joriy qilindi.

Tanbal, yalqovlarga o'rin yo'q. Har bir bola o'qishi, o'rganishi, biror kasb-hunarning boshini ushlashi lozim.

Mamlakatimizda ishshizlar yo'q. Va mamlakatimizda savodsizlar ham bo'lmasligi kerak.

Mening hindistonlik tanishimning qizi Nargis Toshkent maktablaridan birida o'qiydi. Harakatchan, yoqimtoy. Nargis o'zbek tilini tezda o'rganib oldi. Unga o'zbek bolalari yaqindan yordam berishdi. U ularga o'qitgani uchun pul bermoqchi bo'lganda, muallim va bolalar, «bizda umumiy ta'lim bepul, oliy o'quv yurtiga shartnoma asosida kirsang, pul to'larsan», deyishdi.

Nargis juda ajablandi. Biroq murg'ak qalbida Vatanimizga, bolalarga bo'lgan mehr abadul-abad qoldi, albatta. Chin dildan, ko'zlarida samimiy jilva, qo'llari ko'ksida, ta'zim ila: «Rahmat azizlar, azal-azaldan qardosh-jondoshimiz. Sizning yurtigingiz allomasi Bobur va Boburiylar bobokalonlarimiz. Men Sizlarni afsonaviy Hindistonga taklif qilaman», dedi.

Bepul!

Ta'lim bepul.

Madaniyat va istirohat, bolalar bog'lariga kirish, o'quvchilar saroylari, stadionlarda mashq o'tkazish hamma-hammasi bepul.

Asosiy Qonunda har bir shaxs:

Mulkdor bo'lish, Mehnat qilish,

Dam olish, Tibbiy xizmatdan foydalanish, Bilim olish, Madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlariga ega, deyilgan.

Ayni paytda, O'zbekiston fuqarolari o'z burchlarini ham bilishlari shart.

BARCHA fuqarolar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar: halol mehnat qilishi, ma'naviy merosimizni ko'z qorachig'iday avaylab asrashi, Vatan kuch-qudratini mustahkamlashi zarurdir.



Bizning Konstitutsiyamizda, «**Respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilish»** har bir shaxsning muqaddas burchi va vijdon-iymonidir.

Jamiyatning munosib vorislari bo'lib etishish uchun ta'lim-tarbiya va oilaga alohida e'tibor beriladi. «**Oila Jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega»**, degan quyma iboralar, aziz bolajonlar, Sizlarga atalgan g'amxo'rlik namunasidir. Shu bois ham sog'lom va barkamol kelajak aviodini ota-onalar, mahalla — maktab — o'quv yurtlari voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga daxldor va o'zlarida majburiyat his etadilar. Davlat manfaati yo'lida burchlidirlar ham.

Farzandlar ota-onalarining izdoshlari, ular vorislar sifatida Vatan himoyasi va kerak bo'lsa uning uchun jonini tikishga tayyordirlar.

Muhtaram Prezidentimizning, shu aziz va sajdagoh Vatan uchun, uning obod va ravnaq topishi yo'lida jonimni fido qilishga tayyorman, degan dono va burchli so'zlarini hamisha yodimizda tutishimiz va har daqiqa amalga oshirishimiz kerak.

Vatan himoyasi. Uni ko'z qorachig'iday asrash — har birimizning olijanob va insoniy burchimiz. Vatan himoyasi, uni mustahkamlash — «O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmas», ligini ta'minlash naqadar qat'iy va sharafli ekanligini biz ming-million marta his qilganmiz. Sizning burchingiz, birlamchi burchingiz hamda iymon ila muqaddas vazifangiz, umuman, faoliyatingiz ana shunga qaratiladi.

«**Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar»**, degan Asosiy Qonunimiz topshirig'i, ta'bir joiz bo'lsa, buyrug'i biz va Sizga daxldor, o'sib-ulg'aygan sayin buni

butun vujudimiz bilan his qilamiz.

KECHA. BUGUN. ERTAGA.

O'tmish. Hozir. Istiqbol.

Uchta davr Asosiy Qonunimizda mujassam. Porloq kelajagimizga bugun tamal toshini qo'ymoqdamiz.

Sohibqiron Amir Temur o'z faizandlari, kelajak avlodga shunday degan edi:

«**Insonparvarlik va mardlikni Olloh ham, halq ham ulug' laydi. Kuch-qudrat adolatdadir»**.

Vasiyatni biz va Siz shon-sharaf, istiqbolli kelajak uchun amalga oshirmoqdamiz. Shunday qilyapmiz. Bu esa Vatanimizni kamolot cho'qqilariga, jahonda o'z yo'li, o'z timsollari bor — insonparvar demokratik huquqiy davlat ekanligini namoyish qiladi.

Shu boisdan BAXT Qomusida:

«**O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha mullat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi;**

Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar;

Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi» ... deyilgan.

Bunga burchlimiz!

Mamlakat ertasi — bugungi yosh aviodlarni, Sizlarni, qadrlil bolalar, munosib qilib tarbiyalashga bog'liq va bosh vazifa hamdir.

Tarbiya tamoyillari quyidagicha ifoda qilinadi:

— milliy ong,



— milliy g'urur,
— huquqiy madaniyat,
— Vatanga sadoqat,
— millatparvarlik,
— o'zligini anglash,
— jahon xalqlariga hurmat,
— ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlarini e'zozlash va hokazo.

Buning uchun oydin yo'lni Prezident belgilab berdi. Uning orqasidan dadil va bardam bormoqdamiz.

ISTIQBOLLI kelajak, porloq ertamiz qudratli va sir-sinoatli mashinalar, yerliklarning kosmosga, boshqa sayyoralarga uchishida, fan-texnika kashfiyotida sodir bo'lishi bilan birga, eng muhimi, Insonning o'zida namoyon bo'ladi. Bu — bugun vujudga kelmoqda. Inson odamlar uchun, xalq uchun, ona-Vatan ravnaqi uchun har qancha mehnat qilsa, fidoyilik ko'rsatsa — u porloq kelajak uchun qilgan bo'ladi. Har bir kishi jasorati, qahramonligi kelajagi buyuk O'zbekiston uchun ekanligini bir zum ham unutmashimiz kerak, aziz bolalar!

(Davomi bor).



Farzandlarimiz

Bizning aksimiz

Mana, aziz o'quvchilar! IV-chorak ham tugab, yozgi ta'til boshlandi. Ana shu kunlarda Toshkent shahridagi 46-o'rta maktabning 4- «A» sinfida xayrlashuv kechasi bo'lib o'tdi. Bu kechaga o'quvchilar alohida tayyorgarlik ko'rishibdi. Ular sevimli ustozlariga atab she'rlar yod olishib, qo'shiqlar tayyorlashibdi. Kichik sahna ko'rinishini ham unutishmabdi.

Bu kechada albatta o'quvchilarning ota-onalari ham qatnashishdi. Kecha so'ngida men bir-ikki o'quvchi bilan suhbatlashib, ustozlari Minavvaraxon opa Isroilova haqida so'rasam, ular quvonch bilan shunday javob berishdi:

— Biz ustozimiz bilan sira xayrlashgimiz kelmayapti. Ularning bizga ko'p mehnatlari singgan. Biz hech qachon ularning mehribonchiliklarini, samimiy nasihat va tanbehlarini unutmaymiz. YUqori sinfga o'tsak ham albatta ular bilan ko'rishib turishga, kerak bo'lsa maslahat olib turishga va'da beramiz. Kelajakda ustozimizdek inson bo'lishga harakat qilamiz, — deyishdi chug'urlashib.

Men Minavvara opa Isroilovaga juda havasim keldi. Negaki birgina o'quvchilar emas, hatto onalar ham ko'zlarida yosh bilan xayrlashuv kechasini o'tkazishdi.

— Shu qatorda Minavvaraxon opaga aytar so'zim bor, — deydi Olimjonning onalari Nigoraxon Mahamadaliyeva. — Minavvaraxon opa! Sizga rahmat, shunday to'palonchi, sho'x farzandlarimizni 4 yil o'qitib, ta'lim berdingiz. Darsdan so'ng vaqtingizni ayamay, ular bilan shug'ullandingiz. Kelayotgan 1-sinf o'quvchilari ham sizni bizdek sevib, ardoqlashsin. O'quvchilaringiz bir-biri bilan ahilligiga, sizni o'z onalaridek ko'rishlariga biz ota-onalar minnatdorchilik bildiramiz.

Nargiza ABDULLAYEVA.





Азиз «Тонг юлдузи» муштарийлари. «БМТ билан ўйна» викторинасида иштирок этасиз деган умиддаман. Сизга омад тилайман.

БМТнинг Ўзбекистондаги доимий вакили жаноб Павел КРАЛ.

Dear readers of Tong Yulduzi, I hope you take part in the quiz and I wish you the best of luck in the competition!

“БМТ билан ойна”

Мазкур викторина БМТнинг Ўзбекистондаги Ваколатхонаси ва БМТнинг Европа иқтисодий комиссияси (Женева) томонидан иккинчи марта ўтказилмоқда. У сенга Бирлашган Миллатлар Ташкилоти тўғрисида янада кўпроқ билишга, шунингдек, турли-туман совринлари ютиб олишга ёрдам беради. Бунинг учун тўғри жавоблар белгиланган жавоб варақасини ва иштирок этувчиларнинг тўлдирилган карточкасини қуйидаги манзилга жўнат:

Тошкент, 700029, Шевченко кўчаси 4., БМТнинг Ўзбекистондаги Ваколатхонаси Ахборот маркази.

Сенинг жавобларинг 2001 йилнинг 20 июнига қадар жўнатилиши керак. Бош соврин - Женева (Швейцария)га саёхат ва БМТнинг Европадаги бош қароргоҳига бориш. Ундан ташқари ғолибларга БМТ Тараққиёт Дастури, Юнисеф, Бутунжаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти ва БМТ Кўнгиллилар Дастурининг турли совринлари тақдим этилади.

Викторинанинг бош ҳомийси - “Интерпробизнес” корпорацияси. Матбуот томонидан “Тонг юлдузи”, “Класс” газеталари ва “Ориат-Доно” радиоси қўллаиди.



САВОЛЛАР

- БМТнинг қайси ҳужжати, уни дунёнинг 300дан ортиқ халқлари тиллари ва шеваларига таржима қилиб тарқатилгани учун Гиннес рекордлар китобига киритилган?
 - БМТ Низоми
 - Инсон ҳуқуқлари умумий декларацияси
 - Болалар ҳуқуқлари тўғрисида конвенция
- БМТ ташкилотлари ва ходимлари неча Нобел мукофоти билан тақдирланганлар?
 - 5
 - 9
 - 11
- БМТнинг қайси ташкилоти (агентлиги) ҳудудий сувлардан ташқарида ҳаракатланаётган денгиз қароқчиларига қарши жиддий чораларни кўзда тутаяди?
 - БМТнинг инсон ҳуқуқлари бўйича Олий Комиссиясининг комиссияси
 - Халқаро денгизлар ташкилоти (ИМО)
 - БМТнинг савдо ва тараққиёт бўйича конференцияси (YUNKTAD)
- БМТ тузулмаларидаги ташкилотлар (агентликлар) ичида аъзолар сонининг кўплиги жиҳатидан қайси бири энг йириги ҳисобланади?
 - Бутунжаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти
 - БМТнинг болалар жамғармаси (YUNICEF)
 - БМТнинг озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти (FAO)
 - БМТнинг ташкилотларидан (агентликларидан) қайси бири бутун дунё мева ва сабзавотларининг 70 фоиздан ортироғига сифат стандартлари белгилаб берилади?
 - БМТнинг Европа иқтисодий комиссияси
 - БМТнинг озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти (FAO)
 - Жаҳон озиқ-овқат дастури
- Бутун жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти саломатликка қандай таъриф беради?
 - Касалликларни бартараф этиш
 - Инсоннинг жисмоний соғломлик ҳолати
 - Инсоннинг жисмоний, руҳий ва ижтимоий соғломлик ҳолати
- Оттава конвенциясида нима тўғрисида фикр юритилади?
 - Бу битим ҳавонинг ифлосланишига қарши кураш ҳақида
 - Бу битим уруш шароитида болаларни муҳофаза қилиш тўғрисида
 - Бу билим пиёдаларга қарши миналарни ишлаб чиқармаслик ва қўлламаслик тўғрисида
- “Тинчликка эришишнинг йўли йўқ. Тинчлик, бу йўлнинг ўзидир” деган сўзлар қимга тегишли?
 - Махатма Ганди
 - Альберт Эйнштейн
 - Даг Хаммаршолд
- Ўтган йили сентябр ойида Нью-Йоркда бўлиб ўтган минг йиллик Ассамблеясида неча давлат ва ҳукумат раҳбари ташриф буюрди?
 - 185
 - 147
 - 99
- 1948 йилдан буён ўз вазифаларини адо этаётган

- пайтда БМТ (тинчлик ўрнатувчи миссияларнинг фуқаро иштирокчиларини ҳам қўшиб ҳисоблаганда неча киши қурбон бўлди?
- 534
 - 1024
 - 1500дан ортиқ
11. БМТ давлатларининг юқори лавозимини шахслари ва ҳарбийларини Халқаро жиноий судга бера оладими?
- Йўқ
 - Агар мамлакатдаги референдум шундай қарор чиқарса
 - Ҳа
12. Дунё бўйича БМТ тузумида неча киши ишлайди?
- Макдоналдсда ишлаётганлар миқдорига тенг одам хизмат қилади
 - Диснейленд ва Диснейурлд компанияларида хизмат қилаётганлар миқдорига тенг ходимлар ишлайди
 - Нью-Йорк шаҳар полиция бошқармасида ишлайётган ходимлар сонига тенг миқдорда одамлар хизмат қилади
13. БМТ маълумотларига кўра дунёда 15 ёшдан 24 ёшгача бўлган ёшларнинг сони қанча?
- Дунё аҳолисининг 18 фоизи
 - Дунё аҳолисининг 25 фоизи
 - Дунё аҳолисининг 11 фоизи
14. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1984 йил 20 ноябрда қабул қилинган болалар ҳуқуқлари тўғрисида конвенцияси-га Ўзбекистон қачон қўшилган?
- 1994 йил 29 июнда
 - 1997 йил 26 майда
 - 1999 йил 16 сентябрда
15. БМТ Европа иқтисодий комиссияси прогнозлари бўйича саноат робертлари сони 2003 йилда нечага етади?
- 10 миллионга
 - 900 мингга
 - 450 мингга
16. Озон қатламини сийраклашувига қарши Вена конвенцияси қуйидагиларни муҳофаза қилишда даъват этилган?
- Тропосфера озон қатламини
 - Стратосфера озон қатламини
 - Тропо ва стратосфера қатламини
17. БМТнинг Европа иқтисодий комиссиясига неча мамлакат аъзо?
- 34
 - 55
 - 189
18. БМТ Низоми қаерда имзоланган?
- Нью-Йоркда
 - Лондонда
 - Парижда
19. Қайси давлат БМТ Низомига 51-бўлиб имзо чеккан ва шунга мувофиқ БМТга қабул қилинган?
- Жазоир
 - Польша
 - Австрия
20. БМТ Кўнгиллилар Дастурига биноан қайси йил Халқаро Кўнгиллилар йили деб эълон қилинган?
- 2000
 - 2001
 - 2003

ВИКТОРИНАНИНГ ШАРТЛАРИ

- Викторинада Ўзбекистонда доимий яшайдиган 14 ёшдан 17 ёшгача бўлган ўқувчилар таклиф этилади.
- БМТ ваколатхоналари ва БМТ лойиҳалари ходимларининг болалари, қариндошларининг болалари викторинада қатнашишларига рухсат этилмайди.
- Фақат барча жавоблар аниқ, ёрқин кўрсатилган ва викторина қатнашчиси варақаси тўлдирилган буклетлар ҳамда газета бланкаларига кўриб чиқиш учун қабул этилади. Хатлар 2001 йилнинг 20 июнига қадар жўнатилиши керак (бу почта штемпли бўйича аниқланади).
- Викторина қатнашчиси томонидан буклет/бланкалар икки ва ундан кўп нусхада тўлдирилса, унинг викторинада иштироки бекор қилинади.
- Викторина ташкилотчилари - викторина иштирокчиларидан жавоб хати олинганлиги ҳақида маълумотлар бера олмайдилар.
- Викторинанинг барча саволларига тўғри жавоб бериб, 20 балл тўплаган иштирокчилар викторина якунига таклиф этиладилар ва шу ерда ғолиб ва совриндорлар аниқланади. Якуни 2001 йилнинг 20 июнида, Тошкент шаҳрида ўтказиш режалаштирилмоқда.

ВИКТОРИНА ИШТИРОКЧИСИНИНГ КАРТОЧКАСИ

Исми.....
 Фамилияси.....
 Манзили.....

 Почта индекси.....
 Телефон.....
 Туғилган куни ва йили.....
 Мактаби.....
 Синфи.....
 Иштирок этувчининг имзоси.....

Агар сен БМТ тўғрисида кўпроқ билишни хоҳласанг, бизга мурожаат этишиңг мумкин:
 Тошкент, 700029, Т.Шевченко кўчаси, 4.,
 БМТнинг Ўзбекистондаги
 Ваколатхонаси, Ахборот маркази
 Қабул соатлари:
 душанбадан-жумага қадар соат 14.00 дан 17.00
 гача (чоршанба, шанба ва якшанбадан ташқари)
 Ёки Ахборот марказининг қуйидаги “тезкор”
 телефонлари орқали кўнгиноқ қилишиңг мумкин:
 1394835, 1206677, 1391462.

Муҳаббат! Бу сўзни эшитган юрак ларзага келади, қалб ҳаяжондан энтикади. Айниқса, биринчи муҳаббат ҳақида гап кетганда, у эсга олинганда вужудингда ўт чакнайди. Ҳа, биринчи муҳаббат! Ҳеч бирига ўшамас, тенгсиз ва ягона.

Мен мактабда ўқиб юрган кезларимда бир воқеанинг гувоҳи бўлиб, қаттиқ таъсирландим. Негадир ўтган воқеани сизга ҳам айтишни лозим кўрдим.


«Уша пайтларда синфдошим бир қизни севар эди. Улар худди бахтиёр ва аҳил эди. Уларга ҳамма, ҳамма, ҳаттоки устозларимиз ҳам ҳавас-ла боқарди. Биз уларни Фарҳод ва Ширин деб чақирар эдик. Ҳақиқатдан ҳам, йигит қиз учун тоғларни талқон қилишга, керак бўлса юрагини қалқон қилишга тайёр эди. Лекин... Фарҳод тоғни талқон қилгунча Ширин унинг қалбини, севгисини, юрагини талқон

қилиб бўлди. Қунларнинг бирида Фарҳод менга хат берди, шубҳасиз Шириндан эди. Хатнинг устига катта қора юрак расми чизилган эди, тушунсам «Қора хат» экан. Гарчанд бировнинг хатини ўқиш

DARDIM SIZ'NAS DUNYOGA...

гуноҳ ва одобсизлик саналса-да, йигит розилигида мен ўқидим. Хатда бундай сатрлар бор эди:

«... ўйлаб-ўйлаб қилган қарорингиз билан мени хурсанд қилдингиз. Мен севгимиз бузулишини билган эдим. Чунки мактаб ёшидаги севги камдан-кам рўёбга чиқади. Биласизми, аслида мен бошқа бир йигитни болалигимданоқ севар эдим. Сиз билан эса шун-



чаки юргандим, холос. Мени тинч кўйинг».

Севганингиз Шириндан, севолмаган «Фарҳод»га. Воқеа тугади, йигит учун эса ҳаёт тугади гўё. Қиз уни пичоқсиз сўйди. Йигитни

қизнинг олдида севгиси, муҳаббати, қолаверса, гурури топтади.

Ҳа, бу дарёдан томчи дегандек бир қиз ва йигит тақдир. Нима деб ўйлайсиз, нима учун оқибат бундай бўлди?

Албатта биринчи ва энг асосий сабаб севгини тушунмасликда. Уни ўткинчи бир ҳавас деб би-

ким? Балки устозларимиздир! Чунки улар ўз фанларини ўтадилару бошқа мавзулар ҳақида тўхталмайдилар. Тўғри, ҳали ёшмиз. Ҳозир бизни у ёки бу йўлга бошлаш ота-оналаримиз билан бир қаторда устозларимизга ҳам боғлиқ. Агар улар бизга севги ҳақида ҳам бир оз тушунтиришса, бундай воқеалар бўлмасми? Ҳаётда ёшларнинг адашиши оз бўлса-да, камайиб борармиди?

Гоҳида ўйлаб ҳайрон қолам: Нега юқори синф ўқувчилари учун шунга ўхшаш мавзулар ҳақида турли хил китоблар кўпроқ нашр этилмайди? Авваллари юқори синфда «Оила» номли китоб дарслик сифатида фойдаланилар эди. Нега ҳозирга келиб дарс жадвалидан бу фан олиб ташланган?! Бу мавзулар ҳақида ҳам тезроқ бош қотириш керак. Сиз нима дейсиз?

Адолат
ЕАЙРАТ қизи.

Болалар, севимли шоиримиз Рауф Толибни ҳаммангиз жуда яхши танийсиз-а? «Ёш қаламкашлар» тўғарагимизнинг бу галги машғулотига Рауф ака таширф бурдилар.

-Сизларга қараб, болалик йилларим ёдимга тушиб кетди,- дедилар улар. -Устозимиз Қуддус Муҳаммадий бошқарган ижодкор болалар тўғарагига қатнаб юрардим. Ҳар гал янги бир шеър, ҳикоя ёзиб келишга ҳаракат қилардик. Уларни ҳар гал турлича баҳолашарди, баъзиларини макташарди, айримларини эса танқид ҳам қилишарди. Лекин биз ҳечам хафа бўлмасдик, камчиликларимизни тузатишга, янада яхшироқ ёзишга ҳаракат қилардик. Кейинчалик ана шу тўғарагимиз ўзим бошқариб бордим. Кавсар Турдиева, Зафар Комилов сингари ижодкор ака-опаларингиз тўғарагимизнинг фаол қатнашчилари бўлишган. Уларга доимо кўпроқ бадиий китоб ўқинглар, дея

насиҳат қилардим.

Уша насиҳатларимни сизларга ҳам такрорламоқ-

чиман. Яна, танқиддан ҳеч чўчиманглар, ундан тўғри хулоса чиқаришга ўрганинглар. Бошқа соҳаларда ўрта-миёна ишчилар, хизматчилар бўлар. Лекин адабиётда ўрта-миёна ижодкорлар бўлмаслиги керак, деб ўйлайман. Ёзганга яраша, зўр қилиб ёзинглар. Уқинглар мазза қилишин...

Рауф ака билан бўлган учрашувимиз қизиқarli, мунозарали ўтди. Болалар шеърларидан ўқиб беришди, Рауф аканинг шеърларидан ёд олишди, тенгдошларининг шеър ва ҳикояларини тинглаб, муҳокама қилишди. Куйида улардан айримларини эътиборингизга ҳавола қилаймиз.

BIZNING TO'GARAK



HAMMAMIZGA YOQQAN SHE'R

Bu voqea 8-Mart, onajonlarimiz bayrami arafasida bo'lgandi. Bayramga bag'ishlab ochiq dars o'tkazadigan bo'ldik. Ustozimiz, har biringiz onajonlaringiz haqida she'rlar yod olib kelinglar, darsimizga direktorimizni, ilmiy mudirimizni ham taklif qilganman, dedilar.

Uyga borib kitoblarni yaraqlab, bir she'r topdim. Osongina she'r ekan, ikki-uch qavatlar yodlab oldim. Ko'nglim xotirjam bo'lib, boshqa ishlarimga sho'ng'ib ketdim...

Ertasiga maktabga bordim, dars ham boshlandi. Orqadagi partada ilmiy mudirimiz o'tirardilar. Nimagadir direktorimiz ko'rinmasdilar. Ustozimiz, qani bolalar, kim qanday she'r yod olib keldi, bir takrorlab olaylik-chi, dedilar. Hamma barobariga qo'l ko'tardi.

-Qani, Go'zal sen boshlab ber-chi.
Go'zal chiqib baland ovozda, jarangdor qilib she'r boshladi:

**Sakkizinchi mart bugun,
Onajonlar bayrami.
Yo'llariga poyonoz,
Dasta gullar bog'lami...**

-Ha, barakalla, o'tir. Gulchehra, endi sen chiq,-dedilar ustoz.

Gulchehra chiqib undan ham balandroq ovozda xuddi shu she'rni o'qiy boshladi. So'ngra «bopladimmi?» degandek qarab qo'ydi. Ustozimizning biroz jahllari chiqqandek bo'ldi-yu sir- boy bermadilar. Sinfdoshimiz Akmal ham xuddi shu she'rni yod olgan ekan, o'qitmay ham qo'ya qoldilar.

-Nargiza, o'zing chiq qizim,-dedilar ustoz go'yo butun umidim sendan, degandek.

-Men oxista o'rnimdan turib, past ovozda yerdan nigohimni uzmay yana xuddi o'sha she'rni o'qiy boshladim. Bo'ldi kulgi, bo'ldi to'palon.

-Bu nima degan gap? Nahotki shundan boshqa she'r topa olmagan bo'lsangiz?-dedilar ilmiy mudir jahllari chiqib. Shu payt direktor kirib keldilar:

-Nima gap, nega bunchalik shovqin qilyapsizlar?- deb so'radilar. Ustozimiz bor gapni aytib berdilar. Shunda direktorimiz bosliqlik bilan so'z boshladilar:

-Bolalar, onajonlarimizga atalgan she'rlar juda ko'p-ku. Mana masalan, biroz o'ylanib turib:

**Sakkizinchi mart bugun,
Onajonlar bayrami...**

Hamma kulib yubordi. Jahllari chiqib turgan ustozimiz ham, ilmiy mudirimiz ham qotib-qotib kulishardi...

Umida FAYZIYEVA,

Akmal Ikromov tumanidagi 295-maktab o'quvchisi.

O'ZBEKISTON VATANIM

O'zbekiston Vatanim,
Sevimli jonu tanim.
Men buyuk yurt farzandi,
Ota-onam dilbandi.

Maqsadim - a'lo o'qish,
Ilm olish, ko'p bilish.
Olgan bilimlarimni,
Vatanimga sarf qilish.

Mustaqillik tengdoshim,
Kundan -kun o'sar yoshim.
Otam, onam - quyoshim,
Mehribondir yurtboshim.

Mahmudjon AZIMOV,
Shayxontohur tumanidagi
169-maktabning
4 «G»-sinf o'quvchisi.

BOBOMGA SALOM AYTING

Mening bobom olisda,
Buxoroi-sharifida.
Kasblari - muallim,
Maktabda berar ta'lim.

Yo'lingizda qo'llarim,
Xayolimdasiz doim.
Bag'ringizga shoshaman,
Olib borsinda oyim.

Osmondagi kabutar,
Uchayapsan qay tomon?
Borib bobojonimga,
Aytgin mendan ko'p salom.

Salom kimdan ekan deb,
Hayron bo'lmang, bobojon.
Bu she'rni yozdi sizga,
Nabirangiz Lobarxon.


Lobar HASANOVA,
Toshkentdagi 49-sonli bog'cha
maktab litseyining
4-«A» sinf o'quvchisi.



MUSTAQILLIK MUBORAK XALQIM!

Xalqim, mustaqillik muborak senga,
Chiroy ochib borar yurtim kundan-kun.
Kelajakka ildam tashlaydi odim,
O'g'il-qizning mag'rur yurajak bu kun.
Buyuk alloma-yu shoirlaring bor,
Senga bo'lsin doim baxtu omad yor.
O'zingsan hayotbaxsh, mustaqil diyor,
Sensan eng zo'r Vatan, gullari bisyor.
Shoirlaring madhingni kuylar bearmon,
She'ru g'azal yozar, ham doston bitar.
Sen umid qilganing - kelajak avlod,
Yurtimiz bayrog'in balandda tutar.

Nargiza HALILOVA,
Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumanidagi
Beruniy nomli 36-o'rtta maktabning
7-«V» sinf o'quvchisi



Bu sahifani yosh rassom, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 205-maktabning 3-sinf o'quvchisi Go'zal BOYJONOVA bezatdi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Shuhrat AHMEDOV,

Jamoliddin FOZILOV,

Oynisa

MUSURMONOVA,

Komil YUSUPOV,

Mukarrama

MURODOVA,

Sunnatilla QO'ZIYEV,

Ergashvoy SARIQOV.

Noshir

«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 58.519
nuxxada ofset usulida
bosildi.

Korxonada manzili:

«Buyuk Turon»

ko'chasi, 41,

Buyurtma № Г-2592

Gazetani

Muhabbat

MAHSUDOVA

sahifalandi.

Navbatchi:

Muharrama

PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08